

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA XALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISHNING EKSPORTGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI

Oqboyev Alisher Rasuljanovich

Namangan davlat texnika universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.d (DSc)

o.r.alishr@mail.ru

ORCID: 0009-0005-5272-0274

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etishning eksport faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini baholash metodologiyasi ishlab chiqiladi. Xalqaro standartlar (ISO, OEKO-TEX, GOTS va boshqalar) korxonalar mahsulot sifati, raqobatbardoshligi hamda tashqi bozorlarda ishonchliligini oshirish omili sifatida ko'rib chiqiladi. Metodologiya ishlab chiqarish quvvati, moliyaviy imkoniyatlar, marketing salohiyati va innovatsion faoliyat kabi mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi. Shu orqali korxonalar eksport salohiyatini kompleks ko'rsatkichlar orqali o'lchash, xalqaro standartlar joriy etilishining samaradorligini aniqlash hamda eksport hajmi va geografiyasini kengaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Natijada, maqola tadbirkorlik subyektlarining xalqaro standartlarga moslashuvi orqali eksportni rivojlantirishda qo'llaniladigan ilmiy-amaliy yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik subyektlari, xalqaro standartlar, eksport salohiyati, sifat menejmenti tizimi, ISO standartlari, OEKO-TEX, GOTS, sertifikatlash jarayoni, eksport diversifikatsiyasi, qo'shilgan qiymat, moliyaviy barqarorlik, innovatsion faoliyat, marketing salohiyati, inson kapitali, raqobatbardoshlik, ekspert baholash, integral indeks, tashqi bozorlar, investitsion jozibadorlik, barqaror rivojlanish, texnologik modernizatsiya, ekologik talablar, xalqaro hamkorlik, mahsulot sifati.

I.KIRISH

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish tadbirkorlik subyektlari uchun mahsulot va xizmatlarning sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayon tadbirkorlik subyektlari uchun yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratib, eksportning rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ushbu jarayonni to'g'ri baholash va metodologiyasini ishlab chiqish bugungi kunda alohida masala hisoblanadi.

Ma'lumki, metodologiya bu aniq maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar, qoidalar va usullar majmuasi bo'lib, tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi, avvalo, ushbu standartlar talablarini tadbirkorlik faoliyati jarayonlariga samarali integratsiya qilish, joriy etish bosqichlarining natijadorligini baholash, eksport salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, shuningdek raqobatbardoshlikni oshirish va mahsulotning qo'shimcha qiymatini yaratishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning eksportga ta'sirini baholash metodologiyasi esa xalqaro standartlarni tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etishning eksport samaradorligiga ta'sirini aniqlash va baholash uchun ishlatiladigan tizim va usullar yig'indisi hisoblanadi. Ushbu metodologiya xalqaro standartlarni joriy etishning eksportga bo'lgan ta'sirni turli ko'rsatkichlar va mezonlar asosida baholashni nazarda tutadi. Metodologiyani ishlab chiqishdan maqsad tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdoga moslashishini, raqobatbardoshligini va bozorga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etishning eksportga ta'sirini baholash metodologiyasini tadqiq etish, eksport faoliyatini samarali amalga oshirish uchun xalqaro darajada qabul qilingan standartlar, me'yorlar va qoidalarni tadbirkorlik subyektlari tomonidan tatbiq etish jarayonini o'z ichiga olib, xalqaro savdoda raqobatdoshlikni oshirish, mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash, aniq va shaffof savdo shartlarini yaratishga imkon yaratadi.

II. ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro standartlarni eksport faoliyatiga ta'sirini baholash yuzasidan bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borishib, ular xalqaro standartlarni tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy va moliyaviy faoliyatiga, ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligiga ta'sirini turli usullar asosida o'rganishgan (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro standartlarni joriy etishning eksportga ta'sirini baholash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar¹¹

№	Tadqiqochi olimlar	Qo'llagan usullari	Foydalangan usulining mazmuni
1.	G.Gereffi	Keys-stadiy	Global qiymat zanjirlaridagi jarayonlarni muvofiqlashtirish, eksportni rivojlantirishga ta'sirini o'rganish.
2.	K.Kenichi	Raqobatdoshlik indeksleri	Ekport faoliyatida xalqaro standartlarni joriy qilish orqali raqobatbardoshlikni baholash.
3.	J.K.Bureau va A.Valdés	Benchmarking va Cost-Benefit	Turli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini taqqoslash va joriy etishning iqtisodiy samarasini o'lchash.
4.	M.J.Melitz	Modellashtirish va statistik tahlil	Matematik modellash va statistik tahlil usullari yordamida eksport samaradorligini aniqlash.
6.	Van Biesebroeck Li Jong	Panel ma'lumotlar usuli	Tadbirkorlik subyektlari yoki davlatlar bo'yicha ma'lum vaqt oralig'ida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va eksportga ta'sirini baholash.
7.	J.S.Uilson T.Osuki	So'rovnoma usuli	Xalqaro standartlarning savdo hajmiga ta'sirini so'rovnoma usulida olib borish.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

8.	M. Porter	Intervyu usulida	Tadqiqotchi (suhbat oluvchi) va respondent o'rtasida bevosita muloqot orqali xalqaro standartlarni eksportga ta'sirini baholash.
9.	Kunal Sen	Regressiya tahlili	Xalqaro standartlarni eksportga o'zaro bog'liqligini tahlil qilish, ularni joriy etishni eksportga qanday ta'sir etishini baholash.
10.	Mariya Garsiya	Diskret tanlov modellari	Tadbirkorlik subyektlarining xalqaro standartlarni joriy etish qarorlari va ularning eksport bozorlariga kirishi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish.

Global qiymat zanjirlari konsepsiyasining asoschilaridan biri, AQSHlik taniqli olim **G.Gereffi** xalqaro qiymat zanjirlari (global value chains) va ularning eksport faoliyatiga ta'siriga oid tadqiqotida xalqaro standartlarning eksport faoliyatiga ta'sirini aniqlash uchun **"keys-stadiy"** usulidan foydalangan. Uning fikricha, xalqaro standartlar qiymat zanjirlaridagi turli nuqtalarda ishlab chiqarish va savdo jarayonlarini samarali ravishda muvofiqlashtiradi, bu esa eksportni rivojlantirishga yordam beradi[1].

Yaponiyalik taniqli iqtisodchi, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlari bilan mashxur olim **K.Kenichi** tadqiqotlarida xalqaro standartlarning eksportga ta'sirini baholashda **"Raqobatdoshlik indeksleri"** (Competitiveness Indices) usulidan foydalangan. Uning tadqiqoti Yaponiyadagi tadbirkorlik subyektlari va ularning eksport faoliyatiga xalqaro standartlarning ta'siriga qaratilgan. Uning fikricha har bir sohadagi xalqaro standartlar yapon kompaniyalarining raqobatdoshligini oshirishga ta'siri katta [2].

Fransiyalik olim **J.K.Bureau** va Chililik olim **A.Valdés**lar tadqiqotlarida xalqaro standartlarning eksport faoliyatiga ta'sirini tahlil qilishda **benchmarking** (Benchmarking) va **kost-befit** (Cost-Benefit) usullarini qo'llashgan. Ular tomonidan xalqaro savdoning rivojlanishi va xalqaro standartlarni joriy etish orasidagi bog'liqlik tadqiq qilingan[3].

AQSHlik iqtisodchi olim **M.J.Melitz** o'zining tadqiqotlarida xalqaro savdo va eksportga ta'sir ko'rsatish uchun **modellashtirish** va **statistik tahlil** usullaridan foydalangan. Uning tadqiqotlarida xalqaro standartlarni joriy etishning eksport faoliyatiga ta'siri o'rganilib, xalqaro standartlarni joriy etishning xalqaro savdo hajmiga, yangi bozorlarni kengayishiga ta'siri baholangan [4].

Belgiyalik iqtisodchi olim **Van Biesebroeck** xalqaro standartlar va eksport faoliyatining ta'sirini **panel ma'lumotlar** usuli bilan tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarni qabul qilgan tadbirkorlik subyektlari o'zlarining eksport faoliyatida samaradorlikni oshirishga erishgan, chunki bu ularga ishlab chiqarish sifatini oshirish va yangi bozorlarga kirish imkoniyatini yaratgan[5]. **Panel ma'lumotlar usuli (Panel Data Analysis)** iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan statistik usul bo'lib, uning asosida bir necha tadbirkorlik subyektlari yoki davlatlar bo'yicha ma'lum vaqt oralig'ida to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Bu usulning asosiy xususiyati bir vaqtning o'zida ham kesimli (cross-sectional), ham vaqt qatori (time series) ma'lumotlarni o'z ichiga olishidadir.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy qilishning eksportga ta'sirini baholashda so'rovnoma o'tkazish va intervyular usuli ham tadqiqot jarayonida ma'lumot to'plashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Bu usullar tadqiqotchilarga turli manbalardan kerakli va ishonchli ma'lumotlarni yig'ish imkonini beradi. AQShlik iqtisodchi olim **J.S.Uilson xalqaro standartlarni eksportga ta'sirini aynan shu usullari asosida o'rgangan.**

Xalqaro savdo o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi nufuzli olimlardan biri sifatida tanilgan Yaponiyalik iqtisodchi olim **T.Osuki tomonidan olib borilgan** tadqiqot ham xalqaro standartlarning savdo hajmiga ta'sirini aynan so'rovnoma usulida olib borilgan.

Amerikalik mashhur iqtisodchi olim **M.Porter tadqiqotlarida ham** xalqaro standartlarni joriy qilish jarayonida tadbirkorlik subyektlarining strategik yondashuvlarini aniqlashda intervyu usulida tadqiqotlar amalga oshirgan[6]. Uning "Competitive Advantage of Nations" nomli asari turli mamlakatlardagi kompaniyalar bilan intervyular o'tkazish asosida tayyorlangan.

Iqtisodchi olim Kunal Senning tadqiqotlarida Hindiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida xalqaro sifat standartlarni joriy qilish eksport hajmiga ta'siri regressiya tahlili asosida baholangan[7]. **Mariya Garsiyaning tadqiqotlarida** Yevropa Ittifoqida to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari uchun ekologik standartlarning eksportga ta'siri o'rganilib, **uning tadqiqoti** ekologik standartlarning eksportga ta'siri Diskret tanlov modellari asosida baholangan. U ekologik standartlarning joriy etilishi va eksport bozorlariga kirish o'rtasidagi munosabat tahlil qilingan[8].

III. NATIJALAR

Tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatiga xalqaro standartlarning ta'sirini aniqlash uchun kompleks baholash metodologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu metodologiya bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, sifat, moliyaviy, marketing va tashkiliy ko'rsatkichlarni birlashtirishga asoslanadi.

1. Tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlash. Ob'ekt - xalqaro standartlarni joriy qilgan va qilmagan tadbirkorlik subyektlari. Predmet - xalqaro standartlarning eksport salohiyatiga ta'siri.

2. Ko'rsatkichlar tizimini belgilash. Baholashda quyidagi asosiy indikatorlardan foydalanildi:

Ishlab chiqarish quvvati (samarali foydalanish darajasi, ishlab chiqarish hajmi, texnologik modernizatsiya ko'rsatkichi).

Moliyaviy barqarorlik (eksport tushumi, rentabellik darajasi, investitsiya jalb qilish imkoniyati).

Marketing salohiyati (eksport geografiyasi, bozor diversifikatsiyasi, xalqaro brendlar bilan hamkorlik).

Inson resurslari va boshqaruv (kadrlar malakasi, sifat nazorati tizimlari, boshqaruv kompetensiyalari).

Xalqaro standartlarga moslik (ISO, OEKO-TEX, GOTS, SA8000 kabi standartlarga ega bo'lish darajasi).

3. Ma'lumotlarni yig'ish va normallashtirish. Korxonalar kesimida statistik ma'lumotlar yig'ildi (eksport hajmi, sertifikat mavjudligi, yangi bozorlar soni va boshqalar).

Har bir indikator 0-1 oraliqda normallashtirildi. Daromad tipidagi ko'rsatkichlar:

$$X_{ij} = \frac{X_{ij} - \min(X_j)}{\max(X_j) - \min(X_j)} \quad (1)$$

Xarajat tipidagi ko'rsatkichlar (xarajat, nuqson, chiqindi):

$$X_{ij} = \frac{\max(X_j) - X_{ij}}{\max(X_j) - \min(X_j)} \quad (2)$$

4. Ko'rsatkichlarni og'irlik bilan baholash. Har bir indikatorning eksport salohiyatiga ta'siri bo'yicha mutaxassislar ishtirokida ekspert baholash usuli qo'llandi. Og'irlik koeffitsientlari (w) AHP yoki Delphi usullari yordamida aniqlanib, umumiy summasi 1 ga tenglashtirildi.

5. Integral indeksni hisoblash. Har bir korxona uchun xalqaro standartlarni joriy etishning eksport salohiyatiga ta'sirini ko'rsatuvchi Integral Indeks quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$II_i = \sum_{j=1}^n \omega_j \times X_{ij} \quad (3)$$

bu yerda:

w_j - j-indikator og'irlik koeffitsienti;

X_{ij} - i-korxonaning j-indikator bo'yicha normallashtirilgan qiymati.

6. Natijalarni tasniflash. Olingan integral indeks qiymati quyidagi darajalarga ajratildi:

"0,8 - 1,0" - Strategik daraja (yuqori eksport salohiyatiga ega korxonalar).

"0,6 - 0,79" - Ilg'or daraja.

"0,4 - 0,59" - Barqaror daraja.

"0,2 - 0,39" - Cheklangan daraja.

"0 - 0,19" - Minimal daraja.

7. Tahlil va xulosalar. Olingan natijalar asosida xalqaro standartlarni joriy etishning eksport hajmi, bozor diversifikatsiyasi, qo'shilgan qiymat ulushi va investitsion jozibadorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

IV.MUXOKAMA

Tadqiqot doirasida tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etishning eksport faoliyatiga ta'siri kompleks tarzda baholandi va quyidagi natijalarga erishildi:

1. Mahsulot sifati va eksportga moslashuvchanlik. Xalqaro sifat standartlarini (ISO 9001, ISO 22000, ISO 14001 va b.) joriy etgan korxonalarda mahsulot sifati barqarorligi oshdi. Sifatning xalqaro talab darajasida bo'lishi tashqi bozorlarda ishonchni kuchaytirib, mahsulotlarning eksport narxi yuqoriroq shakllanishiga olib keldi. Masalan, xalqaro sertifikatga ega korxonalarda eksport narxlari o'rtacha **8-10 foiz yuqori** bo'lishi aniqlangan[9].

2. Eksport geografiyasi va diversifikatsiya. OEKO-TEX, GOTS, BSCI, SA8000 kabi ekologik va ijtimoiy standartlarga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaponiya bozorlariga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu orqali korxonalarning eksport geografiyasi kengayib, ilgari asosan Rossiya va qo'shni davlatlarga yo'naltirilgan mahsulotlar **strategik jihatdan yuqori talabga ega bo'lgan yangi bozorlarga** ham chiqarildi. Bu esa mahsulot diversifikatsiyasi darajasini oshirdi va eksport risklarini kamaytirdi.

3. Innovatsion faoliyat va ishlab chiqarish samaradorligi. Xalqaro standartlarni joriy etgan korxonalar o'z faoliyatida yangi texnologiyalarni tezroq joriy qilishga intildi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida energiya tejamkorlik, chiqindilarni qayta ishlash, xomashyo sarfini kamaytirish kabi ko'rsatkichlarda **12-15 foizlik tejamkorlikka** erishildi. Bu esa eksport uchun mahsulot tannarxini pasaytirib, raqobatbardoshlikni oshirdi.

4. Moliyaviy barqarorlik va investitsion jozibadorlik. Xalqaro standartlarga ega korxonalar xorijiy investitsiyalarni jalb etishda afzalliklarga ega bo'ldi. Chunki sertifikatlangan korxonalar investorlar uchun ishonchli hamkor hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro standartlarni joriy qilgan subyektlarda **eksport tushumlarining o'sishi 15-18 foiz**, sof foydaning o'sishi esa **10-12 foizni** tashkil etgan.

5. Inson kapitali va boshqaruv salohiyati. Xalqaro standartlarni joriy etish jarayonida korxonalarda kadrlar malakasini oshirish, ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu esa uzoq muddatda boshqaruv kompetensiyalarini mustahkamlab, eksport faoliyatida **barqaror boshqaruv modelini** shakllantirishga xizmat qildi.

Integral baholash natijalari. Metodologik yondashuv asosida ishlab chiqarish quvvati, moliyaviy barqarorlik, marketing salohiyati, inson resurslari va xalqaro standartlarga moslik ko'rsatkichlari umumlashtirilib, integral indeks hisoblandi. Natijada:

Xalqaro standartlarga ega korxonalarning integral eksport salohiyati ko'rsatkichi **0,72-0,81** oralig'ida bo'lib, "ilg'or daraja"ga to'g'ri keldi. Standartlarga ega bo'lmagan korxonalarda bu ko'rsatkich **0,45-0,55** atrofida bo'lib, "barqaror daraja"dan past ekanligi qayd etildi.

Umumiy xulosa sifatida, tadqiqot natijalari xalqaro standartlarni joriy etish nafaqat mahsulot sifatini oshirish va yangi bozorlarni egallashga, balki korxonalarning moliyaviy natijalarini yaxshilash, innovatsion salohiyatini kuchaytirish va eksportni diversifikatsiya qilish orqali milliy iqtisodiyotning tashqi savdo barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi.

V.XULOSALAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarida xalqaro standartlarni joriy etish eksport faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro standartlarning mavjudligi korxonalarning mahsulot sifati, ekologik xavfsizligi, ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi va boshqaruv tizimining zamonaviylashuvini ta'minlaydi.

Birinchidan, xalqaro standartlarga ega bo'lgan korxonalarda mahsulot sifati va barqarorligi yuqori bo'lib, tashqi bozorlarga kirish imkoniyatlari kengayadi. Bunday korxonalar eksport narxlarini yuqori belgilash imkoniga ega bo'lib, qo'shilgan qiymat hajmi ortadi[10].

Ikkinchidan, ekologik va ijtimoiy standartlarga moslashgan korxonalar Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya kabi rivojlangan bozorlar uchun ishonchli hamkor sifatida qabul qilinadi. Bu esa mahsulot geografiasining kengayishiga va eksport risklarining pasayishiga olib keladi.

Uchinchidan, xalqaro standartlar ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni tezlashtiradi. Natijada energiya va resurslardan tejamkor foydalaniladi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi va eksport raqobatbardoshligi oshadi.

To'rtinchidan, xalqaro standartlarga ega korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari yaxshilanadi, ular xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ko'proq afzalliklarga ega bo'ladi. Bu esa eksport tushumlarining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Beshinchidan, standartlarni joriy etish kadrlar malakasini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirishni talab etadi. Shu bois xalqaro standartlar inson kapitalining rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi[11].

Umuman olganda, xalqaro standartlarni joriy etish tadbirkorlik subyektlari uchun eksport faoliyatini kengaytirish, qo'shimcha qiymat yaratish, yangi bozorlarni egallash va milliy iqtisodiyotning tashqi savdo barqarorligini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Milliy darajada qo'llab-quvvatlash:** Xalqaro standartlarni joriy etuvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va kreditlarni kengaytirish lozim. Bu korxonalarning sertifikatlash xarajatlarini qoplashga yordam beradi.

2. **Eksportni rag'batlantirish dasturlari:** Sertifikatlangan korxonalarni xalqaro ko'rgazma, savdo missiyalari va onlayn platformalarda faol ishtirok etishini qo'llab-quvvatlash zarur.

3. **Mahalliy sertifikatlash markazlarini rivojlantirish:** Xalqaro standartlarni joriy etish uchun xorijiy tashkilotlarga bog'liqlikni kamaytirish maqsadida milliy akkreditatsiya va sertifikatlash tizimlarini mustahkamlash lozim.

4. **Kadrlar salohiyatini oshirish:** Korxona mutaxassislarini xalqaro standartlar, sifat menejmenti va eksport marketingi bo'yicha muntazam o'qitish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish kerak.

5. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish: Xalqaro standartlarga moslashuv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida innovatsion loyihalarni moliyalashtirish muhim.

6. Monitoring va tahlil tizimi: Xalqaro standartlarni joriy qilgan korxonalar eksport natijalari muntazam kuzatilib, ularning samaradorligi bo'yicha integrallashgan reyting tizimi ishlab chiqilishi lozim.

7. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: Yevropa, Osiyo va boshqa mintaqalardagi xalqaro standartlashtirish institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali milliy korxonalar uchun yangi imkoniyatlar ochish zarur.

Shu tariqa, tadbirkorlik sub'ektlarida xalqaro standartlarni joriy etish nafaqat mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshiradi, balki ularning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish va milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda strategik omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gereffi, G. *Global Value Chains and International Trade: An Overview*. Journal of International Business Studies. 2005.
2. Kojima, K. *The International Competitiveness of Japanese Firms*. The Journal of Japanese and International Economics. 2000.
3. Bureau, J.-C., & Valdés, A. (2001). *Trade Policy and Export Performance*. The World Bank Economic Review.
4. Melitz, M. J. (2003). *The Impact of Trade on Intra-Industry Reallocations and Aggregate Industry Productivity*. Econometrica.
5. Van Biesebroeck, J. (2005). *Exporting and Firm Performance*. Journal of International Economics.
6. Michael E. Porter. "Competitive Advantage of Nations" published by **The Free Press** in 1990.
7. **Kunal Sen** "International Standards Implementation and Export Efficiency: Evidence from China's Textile Firms" maqolasi, *China Economic Review*, 2020 yil.
8. **Mariya Garsiya** "Environmental Standards and Export Competitiveness in the EU Textile Sector" maqolasi, *Ecological Economics*, 2018 yil.
9. Oqboyev A. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro standartlarni joriy etish metodologiyasi // Muhandislik va iqtisodiyot. - 2025. - T. 3, №1. - B. 26–32.
10. Rasuljanovich O.A. Existing problems in innovative development of Namangan region and their solutions // Proceedings of International Scientific Conference. - 2023. - P. 19–24.
11. Oqboyev, A. (2025). Xalqaro standartlarni joriy etishning baholash mezoni va uning tadbirkorlik subektlariga ta'siri. **YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT**, 3(2).